

SIYOSIY MENEJMENTDA SIYOSIY TAHLIL KONFIGURATSIYASI

Mardanov Sardorbek Zafar o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi

3-kurs talabasi

Аннотация: В данной статье будет освещена конфигурация политического управления с политическим анализом, т.е. уровень фундаментального исследования н₁ и н₂ в политическом поле внутри собственных явлений, а также взаимосвязь и взаимосвязь этих определений. “Политический менеджмент + политический анализ = рациональная эффективность и результативность” доказаны научными основами.

Ключевые слова: Политический менеджмент, политический анализ, политическое поле, политическая проблема, методы политического анализа, модели политического исследования.

Abstract: In this article, the configuration of political management with political analysis, i.e., the level of fundamental research of n₁ and n₂ in the political field within their own phenomena, as well as the relationship and interrelationship of these definitions will be highlighted. In particular, “political management + political analysis = rational effectiveness and efficiency” is proven through scientific foundations.

Keywords: Political management, political analysis, political field, political problem, political analysis methods, political research models.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, siyosiy menejmentning siyosiy tahlil bilan konfiguratsiyalanishi ya’ni n₁ bilan n₂ ning o‘z fenomenlari doirasida siyosiy maydonda tutgan fundamental tadqiqot darajasi, hamda mazkur definitsiyalarning bir-biri bilan aloqasi va bog‘liqligi yoritib o‘tiladi. Xususan, “siyosiy menejment + siyosiy tahlil = ratsional natijadorlik va samaralilik” formulasiga tegishli ilmiy asoslar orqali isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy menejment, siyosiy tahlil, siyosiy maydon, siyosiy muammo, siyosiy tahlil usullari, siyosiy tadqiqot modellari,

Kirish va dolzarbliji. Siyosiy tahlil va siyosiy menejmentning domenantlik va determinantlik jihatlarini siyosiy menejment fenomeni, siyosiy tahlil fenomeni orqali aniqlash va bu definitsiyalarning konfiguratsiyasi ya’ni bir-biriga nisbatan bira ikkinchisining shakli yoki ikkinchisi birinchisi uchun metodologik jihozlar qutisi va siyosiyiy menejment esa shu jihozlar qutisini saqlavchi va undan foydalanuvchi

omborxona ekanligini ilmiy izlanishlar orqali aniq tasnifini keltirish zarur hisoblanadi.¹ Siyosiy menejmentni amalga oshirishda axborotni jamlash, ularni sohalar daxldorligi bo‘yicha ajratish, mavzu jihatdan umumlashtirish, muammoni belgilash, uning yuzga kelish sabab va kechish tarzini amaliy tahlili ahamiyat kasb etadi. Siyosiy tahlil va boshqaruvda axborot omili muhimdir. Siyosiy tahlil- “siyosiy qarorlar ishlab chiqish (siyosat uchun muqobil yo‘nalishlarni tanlash) hamda siyosiy ahamiyatga molik axborotga bo‘lgan kelgusi ehtiyojni aniqlash maqsadida (ilmiy tadqiqotlar natijasini qo‘sghan holda) axborotni sintezlash usullaridir. Demak, siyosiy tahlil- siyosiy menejmentni amalga oshirishda amaliy yordam bera oladigan, ijtimoiy ahamiyatlilik darjasini yuqori bo‘lgan, siyosiy masalalarni hal etish mexanizmini yaratish va takomillashtirish bo‘yicha tamoyil hamda usullarni ishlab chiqish maqsadida dalillashtirishning ko‘plab usullarini o‘zida mujassam etgan aqliy faoliyatdir.² Siyosiy menejment sohasi bu boshqaruvning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Bu soha bir qator siyosiy tahlillarni, texnologiyalarni, usullarni, uslublarni qamrab oladi.³ Siyosiy menejment bu ma’muriy-huquqiy boshqaruv emas, balki, professional va malakali mutaxassislar “menejerlar”dan tashkil topgan va o‘z faoliyatida doimo maqsadli va aniq ko‘zlangan rejalarini, dasturlarni, loyihalarni keng jamoatchilikka tadbiq eta oladigan qobiliyatga ega boshqaruv sohasidir.⁴ Siyosiy tahlil bu sohaning fundamental tag asosidir. Siyosiy tahlilsiz bu soha siyosiy usullarni, uslublarni, texnologiyalarni qo‘llay olmaydi. Bu siyosiy tahlilsiz “urushga qo‘liga quolsiz chiqqan askardek yoki ish quroliga ega bo ‘Imagan ishchidek” bo‘lib qoladi. Siyosiy tahlil bilan siyosiy menejment dominant va determinant hisoblanadi.⁵ Siyosiy menejmentning bunday metodologik jihatdan ustuvorligi shu o‘rinda menejment sohasi uchun ham foydali va muhim bo‘lgan tadqiqotlar bilan shug‘illanish imkoniyatini beradi. Bu davlat boshqaruvida uning muhim pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.⁶

Tadqiqot usuli va metodologiya. Siyosiy menejment ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida muayyan metodologiyalardan foydalanishni taqazo etadi. Ayniqsa, nazariy bilimlar universal, vaqt bilan chegaralangan xususiy stalarni izlash talab etadi. Bu vazifa maxsus ilmiy usullar yordamida hal qilinadi. Siyosiy maydonda vujudga keladigan har qanday vaziyatning murakkabligi, bu vaziyatda uni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlarning turli yangi aloqa va muosabatlarini mavjudligi ilmiy

¹ К.М.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruv asoslari: Maruza. 2022. 3-4б.

² У.Х.Bo’tayev. Siyosiy tahlil: O ‘quv qo‘llanma. – Т.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 13-, 15-16б.

³ Н.А.Трегубов М.Ю.Гутенев Политический менеджмент: учебное пособие. – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2018.- 5с.

⁴ Лютий В.П Политический менеджмент (политология, прикладные исследования, менеджмент): Учебное пособие. – М.: Российская академия прасудия, 2012. 18с.

⁵ Политический менеджмент: учеб. Пособие для академического бакалавриата /В.Ф.Семенов, В.Н.Колесников, - 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 22с. (Серия: Бакалавр. Академический курс)

⁶ Краткий курс по политическому менеджментому.: учеб. Пособие / М.С.Клочкива. – М.: Издательство “ окий-книга”, 2009. – 16с. (Скорая помощь студенту. Краткий курс).

xarakterga ega bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, siyosiy jarayonni, vaziyatni baholsh, uni tahlil qilishda turli vositalardan foydalaniladi.⁷ Siyosiy tahlilni o‘ziga xos tadqiqot jarayoni deb olsak, uning muvaffaqiyatini ta’minlovchi mantiqiy bosqichlarga ajratish zarur. Amerikalik olimlar J.B.Mangeym va R.K.Rich⁸ ning ning fikriga ko‘ra, tahliliy jarayonning quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

- 1) Muammoni nazariy asoslash bosqichi;
- 2) Muammoni modellashtirish bosqichi;
- 3) Muammoni o‘rganish dasturini ishlab chiqish bosqichi;
- 4) Muammoni hal qilish usullarini tanlash bosqichi;

Siyosiy tahlilning asosiy nuqtasi muammoning konseptualizatsiyasini, ya’ni uni nazariy asoslash bilan bog‘liq. Bunda siyosat subyektlarining manfaatlari, faoliyati, tizimli harakatlari alohida tahlil etilishi lozim.⁹ Mazkur faolyatni tahlil qilishda konseptual, joriy, empirik modellar orqali o‘rganiladi.

Konseptual model (KM) - holatning mohiyatini tasvirlovchi tushuncha, ilmiy kategoriya va qonuniyatlar majmuasi.

Joriy model (JM) - axborot olish va qayta ishslash uchun qo‘llaniladigan tartib, usul, ketma-ketlillarga asoslangan aniq fan usuliyoti.

Empirik model (EM) – aniq vaqt va davr davomida bizni qiziqtiradigan holatni sonli va sifatli tasnifini beruvchi tizim. Bundan vaqt hal qiluvchi o‘rinni egallab, quyidagi rejim amal qiladi: vaqt tanqisligi, yetarli va ortiqcha vaqt. Buning evaziga faoliay mahsuldarligi ham o‘zgaradi.¹⁰

Siyosiy tahlilda asosiy masala muammo qo‘yib olish hisoblanadi. Bunda muommoni shakllantirishda muammo delemasi orqali tahlil qilinadi:

Muammo delemasi:

- 1) Nima bo‘layotganini tushunish; (jarayon)
- 2) Qayerda sodir bo ‘layotganini aniqlash; (makon, joy, maydon)
- 3) Bu sodir bo‘layotganini bilish; (Vaqt)
- 4) Kim ishtirok etadi (Subyekt)
- 5) Ular nima qilishadi; (Strategiya)
- 6) Qanday maqsadda bo‘ladi; (Manfaat)
- 7) Vaziyatning rivojlanish konteksi.(reja, sxema, jadvalli tahlil)¹¹

⁷ D.Z.Djumayev, D.I.Madaminova, X.I.Mustapova, B.S.Suyunova. Siyosiy tahlil: O ‘quv qo ‘llanma-T.: TDSHU, 2020.-15b.

⁸ Мангейм Ж.Б., Рич Р.К. Политология. Методы исследования. - М., 1997.

⁹ Jumaev.R, Yovqochev.Sh, Siyosiy texnologiyalar: O ‘quv qo ‘llanma. -T.:2018. – 148-149b.

¹⁰ Абрасимова Н.Н. Личностная временная организация трудовой деятельности как аспекта классификации профессионалов, работающих в предметной области “человек-знак” // Вестник Московского Университета. Серия 14: Психология - №26 2006.-C52.

¹¹ Mirzaaxmedov K.M, Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlil: Ma’ruza. -T.: 2023.-1-2b.

Siyosiy vaziyatning to‘liq tahlili jamiyatning asosiy tizimini tashkil etuvchi barcha siyosiy subyektlarning o‘zaro ta’sirini qamrab olishi kerak. Shunda siyosiy boshqaruvning siyosiy tahlil bilan aniq aloqadorligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.¹²

Muhokama va natijalar. Siyosiy menejmentni tahlil qilishda qo‘llaniladigan nazariy uslublar shartli ravishda ikki guruhga bo‘linadi. 1-guruh uslublari siyosiy jarayonlarni yaxlit jarayon sifatida tasvirlashda qo‘llanilsa, 2-guruh uslublari siyosiy menejment jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tatbiq etishga yo‘naltirilgan. 1-yondashuvda siyosiy menejment obyektiv jarayon sifatida o‘rganiladi. Ikkinchisida kishilarning subyektiv faoliyati sifatida o‘rganilib, siyosiy menejmentda ishtirok etayotgan insonlarning maqsadlari, manfaatlari, ehtiyojlariga tayanishini nazarda tutadi. Siyosiy menejment jarayonlarini tahlil qiluvchi bir qator uslub, tahlil, metodlar mavjud. Ular quyidagilar:

Strukturalizm uslubi - Unga ko‘ra, siyosatda obyektiv ravishda, insonlarning irodasi va ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda ijtimoiy tuzilmalar-strukturalar (institutlar, me’yorlar, guruhlar, jamoalar, maqomlar, rollar,) mavjud bo‘ladi. Strukturalar kishilarni birlashtiradi, ularning fe’l-atvorini belgilab beradi. Tuzilmalarning barqarorligi ularni ijtimoiy voqealikdan ajratib olgan holda har birini alohida o‘rganish imkonini beradi. Strukturalizm yondashuvi doirasida alohida shaxslarning fe’l-atvori, odatda, e’tiborga olinmaydi. Chunki bu yondashuvga ko‘ra, shaxs, avvalambor, muayyan tuzilmaning talablariga itoat etgan holda harakat qiladi. Har bir inson muayyan maqomlar, resurslarga egalik qilib, ko‘p o‘lchamli siyosiy yoki ijtimoiy makonda o‘ziga mos joy, o‘rin egallashi nazarda tutiladi.

Funksionalizm - Mazkur uslub obyektiv ijtimoiy tuzilmalar o‘rtasidagi aloqadorliklarni aniqlashga urg‘u beradi. Masalan, funksional yondashuv doirasida siyosiy menejmentning paydo bo‘lishi jamiyatda, siyosiy tizimda bunga ehtiyojning yetilishi bilan bog‘liq holda tushuntiriladi.

Tizimli tahlil - Hozirgi ko‘rinishida XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy fanlarda shakllandi. Bu yondashuv o‘rganilayotgan obyektni tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lgan hamda doimiy rivojlanish holatida bo‘lgan ochiq tizim sifatida o‘rganishga yo‘naltiradi. Tizimi tahlil metodologiyasi siyosiy menejmentni yaxlit tahlil qilish, uning strategiya va taktikasini ishlab chiqishda chuqurroq va kengroq yondashish imkonini beradi. Bu yondashuvdan tashqari tizimli talil metodologiyasiga oid boshqa yondashuvni bir qancha asarlarning muallifi A.R’kov shunday yozadi: Tizimli tahlilda modellashtirish haqida gap ketganda, modellarni majburiy tarzda miqdoriy xarakterga ega bo‘lishini ko‘zlamaslik lozim. Model sifati, verbal bo‘lishi mumkin. Lekin, unda asoslاب berilgan asosiy shartlar va gipotezalar ajratilgan bo‘lishi

¹² 8) Yusubov.J, Atavullayev.M, Akromov.J, Abdullayev.B. Amaliy Siyosatshunoslik: Uslubiy qo‘llanma. T. 2023.62-b.

shart. Modelning maqbulligi, birinchi navbatda, uning asosiy shartlariga rioya etilganligida namoyon bo‘ladi”¹³

Nazariy uslublarning ikkinchi guruhi siyosiy menejment jarayoniga jalg etilgan kishilarning xatti-harakati sabablarini (motivlarini) o‘rganishni nazarda tutadi. Motivatsiya muammolari turli fan vakillari tomonidan o‘rganilgani bois, kishilarning siyosiy fe’l-atvorini tushunish va bashorat qilishda qo‘llaniladigan uslublar ham turli metodologik maktablarga taalluqli bo‘lishi mumkin. Ulardan eng muhimlari - oqilona tanlov nazariyalari, psixodinamik, bixevoiral, kognitiv nazariyalar. Shu bilan birga siyosiy menejment sohasini chuqur o‘rganish empirik uslublarni ham o‘rganishni va samarali qo‘llashni taqozo etadi.

Empirik uslub - Ularni miqdoriy (“qat’iy”) va sifatiy (“yumshoq”) uslublarga ajratish mumkin. Kuzatuv, anketa so‘rovlari, kontent-tahlil miqdoriy uslublarga kiradi. “Case-study” (vaziyatni o‘rganish), chuqur intervyu, fokus-guruuhlar bilan ishslash sifatiy uslublar hisoblanadi.

Kuzatuv uslubi - Muayyan hodisa yoki jarayonni tushunishga yo‘naltirilgan tizimlashgan harakat bo‘lib, kuzatuvchi tomonidan uning sifatlari va xususiyatlarining qayd qilishini nazarda tutadi. Kuzatuv uslubi bizni qiziqtiradigan siyosiy voqealarni kuzatishimiz bilan umumiylukka ega. Biroq o‘z sohasining mutaxassislari tomonidan ilmiy uyushtirilgan kuzatishlar oddiy kuzatuvlardan tubdan farq qiladi. Bunda kuzatuv doirasi keng bo‘ladi, siyosiy maydonda harakat qilayotgan kishilar xatti-harakatlari butun rang-barangligi bilan qamrab olinadi, muayyan hodisalarning takrorlanuvchanligi darajasi, o‘zaro ta’sirlar tabiatini aniqlanadi, ularning izchilligi belgilanadi. Anketa so‘rovi kuzatuvdan farqli o‘laroq shaxs ongida sodir bo‘layotgan jarayonlar haqida bilish, inson nimani orzu qilayotgani, davlatning qanday shaklini maqsadga muvofiq deb bilishi, qaysi yetakchilar va siyosiy partiyalarga ustuvorlik berayotganini aniqlash imkonini beradi. Anketa so‘rovlari aholining ko‘rsatmalari, qadriyatlar, mayllarini aniqlash imkonini beradi, bularni bilmay turib esa belgilangan maqsadlarga erishishda muvaffaqiyat qozonish mumkin emas. Bundan tashqari, so‘rovlar turli sabablarga ko‘ra ilmiy kuzatuv doirasidan tashqarida qolgan voqealar va xatti-harakatlar haqida ham axborot berishi mumkin.

Kontent-tahlil - axborot manbaining shakli va mazmuniga miqdoriy ishlov berish, baholash va sharhlash usulidir. Kontent-tahlil, ayniqsa, anketa so‘rovi o‘tkazish imkoniyati bo‘lmagan, biroq muayyan siyosiy tashkilot, davlat muassasasi, siyosiy yetakchining ustuvor maqsadlari haqida axborot juda zarur bo‘lgan vaziyatlarda qo‘l keladi.

“Case-study” (vaziyatni o‘rganish) - Tadqiqotchining o‘rganilayotgan vaziyatga muayyan muddatga “kirishi”ni nazarda tutadi va ushbu vaziyatni har tomonlama ko‘rib

¹³ Рыков А.С. Модели системного анализа: принятие решений и оптимизация: - м.: МИСИС, 2005. – С. 45.

chiqish imkonini beradi. Aniqrog'i, bu uslub obyektlar o'rtasidagi aloqadorliklarni, voqealar rivoji dinamikasini, guruhiy me'yor va qadriyatlarni, rollar strukturasi va hokimiyat yuzasidan munosabatlar tizimini o'rganish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, bu uslub faqat bir obyekt haqida axborot olish imkonini beradi, biroq olingan axborot batafsil va to'liq bo'ladi. Siyosiy boshqaruvda “case-study” yordamida siyosiy harakatlar, partiyalar, shuningdek, boshqaruv obyekti hisoblanmish alohida shaxslar o'rganilishi mumkin.

Chuqur intervyu - Unda tadqiqotchi bevosita respondent bilan suhbatlashadi va unga avvaldan tayyorlangan savollarga javoblarni o'zi shakllantirishini taklif etadi va shu tariqa suhbatdoshini fikrlashga, turli hodisalarni baholashga undaydi. Bunday suhbat-intervyu davomida respondent tasavvurlarining murakkab rang-barangligini yuzaga chiqarish, uning hissiy kechinmalarini, xavotirlari va orzu-umidlarini tushunish mumkin bo'ladi. Odatda, keng miqyosli anketa so'roviga tayyorgarlik ko'rish vaqtida yoki muayyan sabablarga ko'ra anketa so'rovini tayyorlash va sifatli o'tkazish imkoniyati bo'lмаган sharoitda axborot olishning bu uslubi qo'llanadi.

“Fokus-guruuhlar” uslubi yoki guruhiy bahs-munozaralar uslubi - Aholi turli qatlamlarining muayyan hodisa-voqeaga munosabatini aniqlashda foydalilanadi. Bu uslub biror muammoning muhokamasini o'z ichiga oladi, bunday muhokamada maxsus tanlangan kishilar ishtirok etadilar, bahs tadqiqotchi tomonidan uyushtiriladi va yo'naltiriladi. Guruhiy bahs-munozarani tashkil etishning metodikasi puxta ishlab chiqiladigan bo'lsa, siyosiy yetakchining nutqi, saylovoldi bayonoti, siyosiy reklama va hokazolarga aholining munosabatini o'rganish mumkin bo'ladi.

“Ish o'yinlari” va “O'yinlar nazariyasi” - u yoki bu siyosiy vaziyatni o'yin tarzida boshidan oxirigacha “o'ynab chiqish” vositasida yetakchilarni, boshqaruv apparatining turli sharoitlarida faoliyat ko'rsatish modellarini ishlab chiqish, siysoiy qaror qabul qilishda vaziyatning turli o'zgarishlarini hisobga olish imkoniyatini beradi.

Anketa so'rovi - Bu shaxs ongida sodir bo'layotgan jarayonlar haqida bilish, inson nimani orzu qiloyatgani, davlatning qanday shaklini maqsadga muvofiq deb bilishi, qaysi yetakchilar va siyosiy partiyalarga ustuvorlim berilyotganini aniqlash imkonini beradi.

Kognitiv kartalar – siyosiy yetakchilar to'g'risida barcha ma'lumot to'planfgan matrisalar. Bu ma'lumotlar jamiyatda siyosiy elita shakllanishi tartibi, uning tarkibi, samaradorligi, tabiat to'g'risida xulosalar qilish imkonini beradi.

Siyosiy vaziyatni modellashtirish – o'yin elementlarini qo'llash orqali u yoki bu ixtilofni, siyosiy qaror oqibatini, hisoblab chiqish, ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish imkonini beradi.

Siyosiy yetakchilarni reytingini aniqlash, darajalash, elektoral statistika – ma'lumotlarning juda katta hajmini kompyuter yordamida tahlil qilish tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Siyosiy monitoring - muayyan hodisalarni ma'lum vaqt oralig'ida kuzatish va uning yakunida shu hodisaga doir xulosalarni ishlab chiqish.

Delfi usuli - Bunda ekspert baholash usulidan foydalaniladi, ya'ni, axborotlar ekspertlar o'rtaida yozma shaklda ritmiklik harakatda aylanadi va muayyan muammo shu aylanish jarayonida bildirilgan yechimlar orqali tahlil xulosa olinadi. Bu usul dastlab harbiy sohada qo'llanilgan keyin esa siyosiy jarayonlarda ekspert guruhlari yoki ekspert mutaxassislar o'rtaida so'rovnomalar yuborilishi orqali amalga oshirilgan.

PATTERN usuli - yana keng tarqalgan bilvosita usul bo'lib, PATTERN (Planing Assistance Through Technical Relevance Number, ya'ni texnik baholashning nisbiy ko'rsatkichlari orqali rejalashtirishga ko'maklashish) dir. Bu usul o'z – o'zidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir nechta tahlil usullarini o'zida jamlagan. Bunda asosan "maqsadlar darxti" ssenariylar ishlab chiqish bilan va unga savollarni daraxt ildiziga qo'yish orqali amalga oshiriladi.¹⁴

Yuqorida keltirilgan har bir nazariy va amaliy uslublar o'zining yutuqlari va kamchiliklariga ega. Bu uslublarning yutug'i shundan iboratki, ular siyosiy menejmentning muayyan jihatlarini tavsiflash, tushuntirish, tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, siyosiy menejment subyekti va obyektini ajratuvchi hamda birlashtiruvchi tuzilmalarni tahlil qilish imkonini (strukturalizm), bu tuzilmalar o'rtaida aloqadorlik, bog'liqliklarni aniqlash imkonini (funksionalizm), shaxs tomonidan muayyan siyosiy fe'l-atvor modelining tanlanishi jarayonlarini tavsiflash imkonini (psixodinamik, kognitiv va boshqa nazariyalar) beradi. Biroq hech bir nazariy uslub siyosiy menejment jarayonlarini butun murakkabligi va serqirraligini tavsiflash imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun ham siyosiy menejment vazifalarini hal qilishda turli nazariy uslublardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish, zarurat tug'ilganida esa turli uslubiy yo'nalishlarni muvofiqlashtirish, ularning mushtarakligiga erishish talab etiladi.¹⁵

Xulosa. Shu asnoda, siyosiy menejmentga oid munosabat bildirish maqsadga muvofiqli. Siyosiy menejment – davlat siyosiy tizimida hokimyatning eng murakkab qismi hisoblanadi, siyosiy qarorlar ishlab chiqish, uning mexanizmlari, siyosiy institutlar va vositalar ustidan nazorat olib boriladigan boshqaruvning oliv shakli. Bu o'rinda siyosiy matndan tortib tahliliy faoliyatgacha murakkab jarayon kechadi. Tahlilchi o'z faoliyati davomida formal mantiq qonuniyatlariga suyanishi darkor. Negaki, tahlilchi siyosiy muammoga tarixiy dalillar, bilim, tajriba hamda shaxsiy mushohadaga suyanib, munosabat bildiradi. Shu bois har qanday tahliliy hujjatning ortida doimo o'z qiziqishi, didi, qadriyatlari, ideallari, yozish va o'qish ko'nikmalari, xotira, rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan aniq shaxs turadi, deb ko'rsatsak xato

¹⁴ Bo'tayev.U.X. Siyosatshunoslik: Darslik-T.: Info Capital Books, 2024.-86-92b.

¹⁵ Bo'tayev.U.X. Siyosatshunoslik: Darslik-T.: Info Capital Books, 2024.-252-256b.

qilmagan bo‘lamiz.¹⁶ Siyosiy menejmentda siyosiy tahlilni qo‘llash va undan samarali foydalanish siyosiy barqarorlikka va siyosiy rivojlanishga olib keladi. Siyosiy menejmentda siyosiy tahlil va siyosiy metodlar o‘z navbatida siyosiy qarorlar qabul qilish, siyosiy konfliktlarni aniqlash, hal etish va uni yumshatish, siyosiy konsalting borasida to‘g‘ri maslahatlarni yo‘llash, siyosiy risklarni boshqarish, siyosiy institutlar, siyosat subyektlarini baholash, tanqidiy tahlil qilish, takomillashtirish, vertikal va gorizontal boshqaruvni ta’minalash, davlat, tashkilot lider imidjini, brendini ko‘tarish, saqlash, turli axborot xurujlari, hujumlari, o‘yinlari shklasiga aniq yondashib, tez javob berish imkoniyatini yaratadi hamda mazkur siyosiy menjmentning siyosiy tahlil bilan ishlashini isbotlab beradi. Bu borada siyosiy tahlillar asosida muayyan siyosiy texnologiyalar yaratiladi. Bu siyosiy texnologiyalar juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu siyosatshunoslikning markaziy nerv sistemasi va sistema orqali siyosiy tahlilar, metodlar, usullar hammasi muammoga yo‘naltiriladi. Siyosiy menejmentning ham asosiy dolzarb masalasi shu siyosiy texnologiyalarni to‘g‘ri foydalana olishi va eng muhimi siyosiy texnologiya qo‘llashdan ham oldin siyosiy tahlillar bilan aloqadorligini kuchaytirishi kerak hisoblanadi.¹⁷ Shuni ham ta’kidlash joizki, davlat boshqaruvining samarali va sifatli olib borilishi bu shu boshqaruv munosabatlarining legitimligini ta’milaydi¹⁸

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- 1) K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruv asoslari: Maruza. 2022. 3-4b.
- 2) U.X.Bo‘tayev. Siyosiy tahlil: O ‘quv qo‘llanma. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 13-, 15-16b.
- 3) Н.А.Трегубов М.Ю.Гутенев Политический менеджмент: учебное пособие. – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2018.- 5с.
- 4) Лютый В.П Политический менеджмент (политология, прикладные исследования, менеджмент): Учебное пособие. – М.: Российская академия прасудия, 2012. 18с.
- 5) Политический менеджмент: учеб. Пособие для академического бакалавриата /В.Ф.Семенов, В.Н.Колесников, - 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – 22с. (Серия: Бакалавр. Академический курс).
- 6) Краткий курс по политическому менеджменту.: учеб. Пособие / М.С.Ключкова. – М.: Издательство “ окей-книга”, 2009. – 16с. (Скорая помощь студенту. Краткий курс).

¹⁶ Samarov R.S. Xavfsizlikning metodologik asoslari. – T: “Akademiya”. 2010. 240 b.

¹⁷ Jumayev.R, Yovqochev.Sh, Siyosiy texnologiyalar: O ‘quv qo ‘llanma. -T.:2018. – 126-127b.

¹⁸ K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya. T.: “Ma’rifat” 2023. 176-b.

- 7) D.Z.Djumayev, D.I.Madaminova, X.I.Mustapova, B.S.Suyunova. Siyosiy tahlil: O‘quv qo‘llanma.-T.:TDSHU, 2020.- 15b.
- 8) Мангейм Ж.Б., Рич Р.К. Политология. Методы исследования. - М., 1997.
- 9) Jumayev.R, Yovqochev.Sh, Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. -T.:2018. – 148-149b.
- 10) Абрасимова Н.Н. Личностная времененная организация трудовой деятельности как аспекта классификации профессионалов, работающих в предметной области “человек-знак” // Вестник Московского Университета. Серия 14: Психология - №26 2006.-C52.
- 11) Mirzaaxmedov K.M, Siyosiy jarayonlarning tizimli tahlil: Ma’ruza. -T.: 2023.-1-2b.
- 12) Yusubov.J, Atavullayev.M, Akromov.J, Abdullayev.B. Amaliy Siyosatshunoslik: Uslubiy qo‘llanma. T. 2023.62-b.
- 13) Рыков А.С. Модели системного анализа: принятие решений и оптимизация: - м.: МИСИС, 2005. – С. 45.
- 14) Bo‘tayev.U.X. Siyosatshunoslik: Darslik-T.: Info Capital Books, 2024.-86-92b.
- 15) Bo‘tayev.U.X. Siyosatshunoslik: Darslik-T.: Info Capital Books, 2024.-252-256b.
- 16) Samarov R.S. Xavfsizlikning metodologik asoslari. – Т: “Akademiya”. 2010. 240 b.
- 17) Jumayev.R, Yovqochev.Sh, Siyosiy texnologiyalar: O ‘quv qo‘llanma. -T.:2018. – 126-127b.
- 18) K.M.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya. Т.: “Ma’rifat” 2023. 176-b.